

"Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" АЖ нинг ривожланиш СРТАТЕГИЯСИ.

Indorama Holdings B.V. 2019 yilning iyun oyida, hukumatning xususiy lashtirish siyosati asosida PQ-4265-sonli qaroriga muvofiq O'zbekistonning Qo'qon shahrida joylashgan Qo'qon superfosfat zavodini sotib oldi. "Qo'qon superfosfat zavodi" AJ nomi, "Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals" AJ ga o'zgartirildi.

Bu zavodning xarid qilinishi, Indorama korporatsiyasining tabiiy resurslar va ichki bozor afzalliklari bo'lgan mamlakatlarda o'z o'rnni kengaytirish global strategiyasiga mos keldi. Indorama Kokand Fertilizers & Chemicals AJ zamonaviy texnologiyalar va xalqaro texnik tajribaga yangi sarmoya kiritib, ish o'rinnarini yaratish, boshqa sanoat va xizmatlarni rivojlantirish, eksportni hajmini ko'tarish va ekinlar hosildorligini oshirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkoniyatiga ega.

2019 yilda O'zbekiston hukumati bilan investitsiya kelishuvi tasdiqlandi va to'liq modernizatsiya va o'zgartirish dasturini ishga tushirish boshlandi.

Investitsiya loyihasi ikki bosqichda amalga oshiriladi.

1-bosqich 2019-2021 yillarga mo'ljallangan bolib, investitsiya xajmi 30.0 mln dollar.

2-bosqich 2022-2024 yillarga mo'ljallanga bolib, unda qo'shimcha mineral o'git turlarini ishlab chiqarish maqsad qilingan.

2021 yilning 1-choragida 1-bosqich modernizatsiya ishlari tugallanganidan so'ng, ishlab chiqarish xajmi avvalgi 100,000 tonnadan kam bo'lgan ko'rsatkichlardan yiliga 350,000 tonnagacha oddiy superfosfat yoki 290,000 ming tonna ammiakli oddiy superfosfat tayyor mahsulotini ishlab chiqarish xajmiga etkazildi.

"Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals AJ o'z o'g'it mahsulotlarini O'zbekiston va yaqin mamlakatlar bozorida sotuvga "**OLTIN**" nomli brendi asosida sotishni rejashtirgan.

"OLTIN" brendi ostida chiqadigan mahsulotlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, kafolatlangan sifat, vazn, izchil etkazib berish va mijozlarni qo'llab -quvvatlash kabi afzalliklarni taklif etadi.

O'zbek tilidagi "OLTIN" so'zini brend sifatida tanlab olinishi, korxona mahsulotlarini mamlakat o'g'itlar bozorida oltin metali kabi yuqori sifat standartlari pog'onasiga olib chiqish niyati ko'zda tutilgan.

Bizning ko'zlagan vazifamiz:

Markaziy Osiyodagi fermerlarni sifatli o'g'itlar bilan ta'minlash, mintaqadagi oziq-ovqat xavfsizligini oshirish.

Bizning istiqbolli rejamiz:

Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik fosfatli o'g'itlar ishlab chiqaruvchisi bo'lish.

Bizning Qadriyatlarimiz:

- Kasbiy etuklik
- Yaratuvchanlik
- Halollik
- Xavfsizlik
- Jamoaviy o'sish